



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MARKAZIY OSIYODA MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA TDTNING FUNKSIONAL-INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI

Iymanov Javlon Saidraxmonovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, professor

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida ma'naviy barqarorlikni saqlashda Turkiy davlatlar tashkilotining (TDT) institutsional mexanizmlari va ularning funksional imkoniyatlari tadqiq etiladi. Ilmiy tadqiqotda integratsiya jarayonlarining shunchaki siyosiy-iqtisodiy xarakterda emas, balki mintaqaviy xavfsizlikning ma'naviy-gnoseologik asosi sifatida namoyon bo'lishini asoslab beriladi. Maqolada TDT tarkibidagi ixtisoslashgan institutlar (TURKSOY, Turkiy akademiya, Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi) faoliyati ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: TDT, Markaziy Osiyo, ma'naviy barqarorlik, institutsional mexanizm, funksional tahlil, Turkiy akademiya, TURKSOY, ijtimoiy barqarorlik, integratsiya.

ФУНКЦИОНАЛЬНО-ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОТГ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ДУХОВНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Ийманов Жавлон Саидрахмонович
Университет экономики и педагогики, профессор

Аннотация

В данной статье исследуются функционально-институциональные механизмы Организации тюркских государств (ОТГ) в обеспечении духовной стабильности в регионе Центральной Азии. Автор обосновывает, что интеграционные процессы носят не только политико-экономический характер, но и выступают в качестве духовно-гносеологической основы региональной безопасности. В статье анализируется деятельность специализированных институтов в структуре ОТГ (ТЮРКСОЙ, Тюркская академия, Фонд тюркской культуры и наследия) как механизмов, обеспечивающих социальную стабильность. Рассматривается роль этих институтов в формировании коллективного иммунитета против внешних идеологических экспансий через сохранение культурного наследия и интеллектуальное развитие.

Ключевые слова: ОТГ, Центральная Азия, духовная стабильность, институциональный механизм, функциональный анализ, Тюркская академия, ТЮРКСОЙ, социальная стабильность, интеграция.

FUNCTIONAL AND INSTITUTIONAL MECHANISMS OF THE OTS IN ENSURING SPIRITUAL STABILITY IN CENTRAL ASIA

Iymanov Javlon Saidrakhmonovich
University of Economics and Pedagogy, Professor

Abstract

This article examines the functional-institutional mechanisms of the Organization of Turkic States (OTS) in ensuring spiritual stability in the Central Asian region. The author substantiates that integration processes are not merely of a politico-economic nature but also serve as a spiritual-gnoseological foundation for regional security. The article analyzes the activities of specialized institutions within the OTS structure (TURKSOY, Turkic Academy, Turkic Culture and Heritage Foundation) as mechanisms for maintaining social stability. The role of these institutions in developing collective immunity against external ideological expansions through the preservation of cultural heritage and intellectual advancement is explored.

Keywords: OTS, Central Asia, spiritual stability, institutional mechanism, functional analysis, Turkic Academy, TURKSOY, social stability, integration.

Insoniyat sivilizatsiyasining hozirgi bosqichi global transformatsiyalarning shiddatli kechishi va "madaniy diffuziya" jarayonlarining tezlashishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda mintaqaviy xavfsizlik masalasi an'anaviy harbiy-siyosiy talqindan chiqib, jamiyatning ma'naviy-ruhiy barqarorligi darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ma'naviy barqarorlik — bu shunchaki mafkuraviy tushuncha emas, balki tashqi g'oyaviy ekspansiyalarga qarshi jamoaviy immunitet

shakllanishining zaruriy shartidir.

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) o'zining zamonaviy rivojlanish strategiyasida aynan mana shu "ma'naviy xavfsizlik" masalasini integratsiyaning markaziy qismiga qo'yadi. Ma'naviy tanazzul asosan yoshlarda ko'proq kuzatilayotganligi hamda yoshlarga katta e'tibor berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 11-noyabrda Samarqand shahrida o'tkazilgan sammitda TDT Bosh kotibining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimini joriy etish taklifini bergan edi. "Yana bir ustuvor yo'nalish — mintaqamizda xavfsizlikni ishonchli ta'minlashdir. So'nggi paytlarda jahonning turli nuqtalaridagi ziddiyatli voqealar turkiy dunyoning umumiy xavfsizligiga ham ta'sir o'tkazayapti" [1]. Ushbu yondashuv nafaqat iqtisodiy, balki funksional-institutsional mexanizm sifatida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini belgilab beradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda ma'naviy barqarorlikka tahdid soluvchi identifikatsiya inqirozi va radikallashuv jarayonlariga qarshi har bir davlatning alohida kurashishi samarasizdir. Bu borada TDT tarkibidagi TURKSOY, Turkiy akademiya va Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi kabi institutlar hamkorlikning real platformasini yaratmoqda. Mashhur turk olimi va diplomati Xalil Akinji ta'kidlaganidek, ushbu institutlar "turkiy xalqlarning tarixiy xotirasini qayta tiklash orqali ularning kelajakdagi birdamligini kafolatlaydi" [2].

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada TDT doirasidagi madaniy-ma'rifiy loyihalarning mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi funksional samaradorligi falsafiy va institutsional tahlil obyekt sifatida o'rganiladi.

Metodologiya. Maqolada tizimli tahlil, ijtimoiy-qiyosiy tahlil, falsafiy mushohada metodi, tarixiylik, strukturaviylik usullari hamda germevntik metodlar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz davomida olib borilgan tahlillar natijalariga ko'ra, TDTning mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi faoliyati shunchaki davlatlararo hamkorlik emas, balki jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir etuvchi ko'p bosqichli filtr tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki jamiyat farovonligi hamda barqarorligi faqatgina iqtisodiy tizimgagina bog'liq emas. Shu sababli ushbu tizimni quyidagi ixtisoslashgan institutlar faoliyati misolida kengroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

TURKSOY (Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti) tashkiloti madaniy immunitetni shakllantirish mexanizmi sifatida ko'riladi. TURKSOY faoliyatini shunchaki festival va ko'rgazmalar tashkilotchisi deb baholash tor doirada tafakkur qiluvchi insonlar tasavvuridir. Aslini olib qaraganda, ushbu institutsional mexanizm mintaqaviy barqarorlik tizimida madaniy muvozanatni tartibga soluvchi (regulyator) funktsiya bajaradi. U global mafkuraviy jarayonlar ichidan turkiy dunyoga xos bo'lmagan destruktiv elementlarni saralab oluvchi va ijtimoiy ongda aksiologik barqarorlikni ta'minlovchi ma'naviy ekotizimni yaratadi. Global ommaviy madaniyatning agressiv diffuziyasi sharoitida TURKSOY turkiy xalqlarning etnik-madaniy kodlarini qayta tiriltirish orqali mintaqa yoshlarida begona qadriyatlarga nisbatan tabiiy immunitet hosil qiladi. Ya'ni madaniy meros bu yerda passiv obyekt emas, balki jamiyatni ma'naviy inqirozlardan himoya qiluvchi aktiv qalqon sifatida namoyon bo'ladi. "TURKSOYning maqsadi turkiy xalqlar o'rtasidagi birodarlik va do'stlikni mustahkamlash, umumiy turkiy madaniyatni targ'ib qilish va uni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishdan iboratdir" [3].

TURKSOY shunchaki o'tmishni qo'msash emas, balki turkiy dunyoning kelajakdagi ma'naviy xavfsizligini ta'minlovchi intellektual loyihadir. Mazkur tashkilot turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqa uzilishlarini bartaraf etish orqali mintaqada yagona va mustahkam ma'naviy barqarorlik maydonini barpo etishda tayanch vazifasini o'taydi.

Xalqaro Turkiy akademiyaning Turk dunyosida intellektual xavfsizlikni saqlovchi drayver sifatida talqin qilish mumkin. Akademiyaning eng muhim funksiyasi turkiy dunyodagi ilmiy bo'shliqni to'ldirish va yagona gnoseologik makon yaratishdir. "Umumturkiy tarix" loyihasining amalga oshirilishi shuni ko'rsatadiki, endilikda turkiy xalqlar o'z o'tmishini tashqi qarashlar prizmasida emas, balki o'zlarining subyektiv haqiqatlari asosida anglamoqdalar. Bu esa mintaqaviy barqarorlikning eng zaif nuqtasi — tarixiy xotiradagi uzilishlarni bartaraf etib, yoshlar ongida "tarixiy adolat" tuyg'usini mustahkamlovchi mexanizm vazifasini o'taydi. 2025-yil 7-oktabr kuni TDT Davlat rahbarlari kengashining Gabala shahrida o'tgan yig'ilishida Prezident Sh. Mirziyoyev 2025–2026-yillarda mamlakatimiz 100 dan ortiq ta'lim muassasalarini birlashtirgan Turkiy universitetlar ittifoqiga raislik qilishini hamda O'zbekiston raisligi davrida "Turkiy ilm-fan va innovatsiyalar kunlari"ni o'tkazish yuzasidan takliflarini bergan edi. Ana shu tashabbusning amaliy ifodasi sifatida 16-oktabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Toshkent xalqaro universiteti hamda O'zbekiston milliy media birlashmasi bilan hamkorlikda "Alp Er To'nga

avlodlari — Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida” mavzusidagi xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi [4].

Xalqaro Turkiy akademiya faoliyati va O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan ta’limiy tashabbuslar mintaqadagi intellektual parchalanish xavfiga barham beradi. Bu jarayon yosh avlod ongida nafaqat o‘tmish bilan g‘ururlanish, balki umumiy ilmiy va innovatsion kelajakni birgalikda qurish mas’uliyatini shakllantiruvchi strategik drayver bo‘lib xizmat qiladi.

Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi sivilizatsiyaviy identifikatsiya tayanchi sifatida “tarixiy xotira — ijtimoiy barqarorlik” prinsipiga tayanadi. Jamg‘arma faoliyati davomida tarixiy obidalarni qayta tiklash va “Buyuk Ipak yo‘li” turistik-ma’rifiy yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali mintaqadagi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash yo‘lida qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Biroq jamg‘arma moddiy obidalarni saqlashdan ham chuqurroq mohiyatga ega bo‘lib, turkiy sivilizatsiyaning genetik xotirasini muhofaza qiladi. Markaziy Osiyo davlatlarida ijtimoiy barqarorlik ko‘p jihatdan odamlarning o‘z zaminiga bo‘lgan ma’naviy bog‘liqligi bilan belgilanadi. Jamg‘arma tomonidan qayta tiklanayotgan har bir obida mintaqa aholisida bir butunning qismi ekanligi to‘g‘risidagi fikrlarni kuchaytiradi va ijtimoiy-sivilizatsiyaviy mansublikni mustahkamlaydi. Bu esa tashqi mafkuraviy parchalanishlarga qarshi ijtimoiy birlashish mexanizmini ishga tushiradi [5].

Ushbu jarayon Markaziy Osiyo xalqlari ongida quyidagi uchta muhim bosqich orqali ijtimoiy birlashish mexanizmini ishga tushiradi:

Tarixiy obidalarni qayta tiklash jarayoni jamiyatda tarixiy uzilish inqirozini bartaraf etadi. Bu, o‘z navbatida, o‘zlikni anglashni subyektiv emotsional darajadan obyektiv tarixiy daxldorlik darajasiga ko‘taradi.

“Buyuk Ipak yo‘li” turistik-ma’rifiy yo‘nalishlari mintaqalararo ijtimoiy muloqotni jadallashtiradi. Bu orqali sivilizatsiyaviy mansublik shunchaki nazariya emas, balki iqtisodiy va madaniy almashinuvga asoslangan hayotiy haqiqatga aylanadi.

Jamg‘arma tomonidan targ‘ib qilinayotgan umumturkiy qadriyatlar mintaqaviy barqarorlikka tahdid soluvchi radikal g‘oyalar va begona mafkuraviy oqimlarni aksiologik zararsizlantirish funksiyasini bajaradi. Natijada jamiyatda tashqi parchalanishlarga nisbatan jamoaviy chidamlilik shakllanadi.

Jamg‘arma faoliyati turkiy sivilizatsiyaning genetik xotirasini muhofaza qilish orqali bugungi kunning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy fundamentni yaratadi. Ushbu fundament Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi daxldorlik tuyg‘usini ijtimoiy integratsiya darajasiga ko‘tarib, mintaqaviy birdamlikni strategik ustuvorlikka aylantiradi.

Tarixiy obidalarni qayta tiklash shunchaki o‘tmishni tiklash emas, balki mintaqa xalqlari o‘rtasidagi ma’naviy uzviylikni qayta tiklashdir. Bu jarayon har bir fuqaroda umumiy sivilizatsiyaga daxldorlik hissini uyg‘otib, tashqi mafkuraviy xatarlarga qarshi jamoaviy barqarorlikning mustahkam poydevorini yaratadi.

Muhokama (Discussion). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiy davlatlar tashkilotining mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashdagi faoliyati an’anaviy integratsiya modellaridan tubdan farq qiladi. Agar Yevropa Ittifoqi yoki boshqa mintaqaviy tuzilmalarda iqtisodiy manfaatlar birlamchi bo‘lsa, TDT modelida ma’naviy-qadriyatli birdamlik integratsiyaning drayveri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bizning tahlilimizga ko‘ra, TDT tarkibidagi TURKSOY, Turkiy akademiya va Meros jamg‘armasining o‘zaro muvofiqlashgan faoliyati mintaqada aksiologik xavfsizlik kamarini hosil qilgan. Bu kamar quyidagi sabablarga ko‘ra Markaziy Osiyo barqarorligi uchun muhim:

Birinchidan, ommaviy madaniyatning agressiv ekspansiyasi sharoitida ushbu institutlar milliy o‘zlikni saqlab qolishning institutsional filtri vazifasini bajarmoqda. Bu esa yoshlarda identifikatsiya inqirozining oldini oladi.

Ikkinchidan, “Umumturkiy tarix” kabi loyihalar mintaqadagi davlatlarning bir-biriga nisbatan ishonchini oshirib, sivilizatsiyaviy jipslashuv mexanizmini ishga tushirmoqda. Bu esa har qanday tashqi geosiyosiy parchalanish urinishlariga qarshi jamoaviy chidamlilikni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida shuni ta’kidlash lozimki, ushbu funksional mexanizmlarning samaradorligini yanada oshirish uchun raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zarur. Zero, hozirgi axborot urushlari davrida ma’naviy barqarorlik nafaqat kitoblarda, balki raqamli kontentda ham himoya qilinishi shart.

Bundan tashqari, mazkur tashkilotning funksional imkoniyatlari ayniqsa yoshlar siyosatida yaqqol ko‘rinadi. “Turkiy dunyo talabalar almashinuvi” va “Yoshlar forumi” kabi loyihalar mintaqadagi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan birga, ularning qadriyatlar tizimini yagona o‘zak atrofida

birlashtiradi [6]. Bu esa global transformatsiyalar davrida Markaziy Osiyo yoshlari orasida identifikatsiya inqirozi yuzaga kelishining oldini oladi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Turkiy mamlakatlar tarixi” kabi fundamental tadqiqotlarni birgalikda yaratish dolzarb vazifamizdir. Shu bilan birga, turkiy tillardan bevosita tarjima qilishni rag‘batlantirish, maktablarimizda turkiy xalqlar va ularning tarixi, etnografiyasi, madaniyati va san’ati haqida fakultativ darslarni yo‘lga qo‘yish lozim” [7].

Prezident Sh. Mirziyoyevning ushbu fikrlaridan shuni anglash mumkinki, maktab ta’limiga turkiy xalqlar tarixi va madaniyatini integratsiya qilish — bu shunchaki bilim berish emas, balki kelajak avlod ongida ma’naviy begonalashuvga qarshi mustahkam gnoseologik qalqon yaratishdir. Ushbu fakultativ mashg‘ulotlar yoshlarda umumturkiy sivilizatsiyaviy merosga nisbatan daxldorlik tuyg‘usini shakllantirib, ularni tashqi mafkuraviy ekspansiyalarga qarshi intellektual jihatdan tayyorlaydi. Pirovardida, mazkur yondashuv turkiy dunyo integratsiyasini nazariy bosqichdan kundalik ijtimoiy qadriyat darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Xulosa. Turkiy davlatlar tashkilotining mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashdagi funksional mexanizmlarini tadqiq etish natijasida quyidagi nazariy va amaliy xulosalarga kelindi:

TDT faoliyati Markaziy Osiyoda an’anaviy iqtisodiy-siyosiy integratsiyadan farqli o‘laroq, ma’naviy-qadriyatli birdamlik modeliga tayanadi. Mazkur model global ommaviy madaniyatning agressiv diffuziyasi sharoitida mintaqa xalqlarining sivilizatsiyaviy o‘zligini saqlab qolishda strategik ahamiyatga ega.

Tashkilot tarkibidagi ixtisoslashgan institutlar (TURKSOY, Turkiy akademiya, Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi) mintaqaviy barqarorlikni ta’minlovchi ma’naviy xavfsizlik arxitekturasini shakllantirmoqda. Ushbu tuzilmalar madaniy immunitetni kuchaytirish, tarixiy adolatni tiklash va yoshlar ongida umumturkiy daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish orqali tashqi mafkuraviy xavf-xatarlarga qarshi aksiologik filtr vazifasini o‘taydi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta’limiy va ilmiy tashabbuslar (umumturkiy darsliklar, universitetlar ittifoqi, innovatsiya kunlari) mintaqadagi intellektual parchalanishning oldini olishga qaratilgan. Bu jarayon yosh avlodni nafaqat bilimli, balki milliy-madaniy ildizlariga sodiq qilib tarbiyalashning funksional platformasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

TDT doirasidagi madaniy-ma’rifiy loyihalarni raqamli transformatsiya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda turkiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi milliy kontentlar ko‘lamini kengaytirish;

oliy ta’lim tizimida “Turkiy dunyo sivilizatsiyasi” fanini fakultativ kurs sifatida joriy etish orqali talabalarda mintaqaviy daxldorlik ko‘nikmalarini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, TDT institutlarining o‘zaro muvofiqlashgan faoliyati Markaziy Osiyoda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaratish va turkiy xalqlarning sivilizatsiyaviy mansubligini mustahkamlashning eng samarali institutsional mexanizmi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishidagi nutqi. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5687>
2. Akıncı H. Türk Konseyi ve Türk Dünyasının Kurumsallaşma Süreci. – Ankara: Ahmet Yesevi Üniversitesi Yayınları, 2015. – B. 42–45.
3. Mamadjonov A. “Turkish World” strategy of Turkey’s soft power in Central Asia: opportunities and challenges // International Journal of History and Political Sciences. – 2025. – Vol. 5, Issue 5. – Pp. 46–51.
4. Omonov Q. O‘zbekiston Turkiy ilm-fan o‘chog‘iga aylanmoqda. – URL: https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-turkiy-ilm-fan-ochogiga-aylanmoqda_778556
5. Efendiyeva G. Turkic Culture and Heritage: From Preservation to Global Promotion. – Baku: International Turkic Culture and Heritage Foundation Press, 2024. – Pp. 24–27.
6. OTS Secretariat. Turkic World Vision – 2040: Implementation Roadmap for Youth and Education. – Istanbul, 2022. – URL: www.turkiestates.org
7. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. – Bishkek, 2024-yil 6-noyabr. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7670>